ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Bomurotova Nigora Abdug'affor qizi

Buxoro shahar, Peshku tuman 8-maktab texnologiya fani o'qituvchisi

nigorabomurotova37@gmail.com

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TEXNOLOGIYA FANIDAN AMALIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH VA DARS SOATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqola umumta’lim maktablarida texnologiya fanini o'qitish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar, xususan dars soatlarining yetarli emasligi va bu holat o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarni egallashiga ta'siri qilinadi. Shuningdek, o'quvchilarning kasbga yo'naltirilishida texnologiya fanining o'rni va ahamiyati yoritiladi. Amaliy misol sifatida sun'iy gul kompozitsiyasi tayyorlash orqali daromad olish imkoniyatlari ko'rsatib berildi. Muammoni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar

texnologiya, amaliy ko‘nikma, dars soati, kasbga yo'naltirish, daromad, hunarmandchilik, ta’lim

Abstract

This article analyzes the challenges encountered in teaching technology education in general secondary schools, particularly the issue of insufficient lesson hours and its impact on students’ acquisition of practical skills. Furthermore, the study highlights the role and significance of technology education in guiding students toward future careers. As a practical example, the potential for generating income through creating artificial flower compositions is demonstrated. The article also provides recommendations and possible solutions to address the identified problems.

Keywords

technology education, practical skills, lesson hours, career guidance, income, handicrafts, education

Аннотация

В данной статье анализируются проблемы, возникающие при преподавании технологии в общеобразовательных школах, в частности недостаточное количество учебных часов и его влияние на формирование практических навыков у учащихся. Также раскрывается роль и значение предмета «Технология» в профессиональной ориентации учащихся. В качестве практического примера показаны возможности получения дохода за счёт изготовления композиций из искусственных цветов. В статье предлагаются рекомендации и возможные пути решения выявленных проблем.

Ключевые слова

технологическое образование, практические навыки, учебные часы, профессиональная ориентация, доход, ремесленничество, образование

Kirish. Hozirgi globallashuv davrida ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – o‘quvchilarni nafaqat nazariy bilim bilan, balki amaliy ko'nikmalar bilan ham qurollantirishdir. Ayniqsa, umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan texnologiya fani bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu fan o'quvchilarda mehnatga bo'lgan munosabatni shakllantirish, ijodkorlikni rivojlantirish hamda ularni kelajakdagi kasbiga yo'naltirishga xizmat qiladi.

Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, maktablarda texnologiya faniga ajratilgan dars soatlari yetarli emas. Bu esa o'quvchilarning mavzularni chuqur o'zlashtirishiga to'sqinlik qilmoqda. Natijada ular faqat yuzaki bilim bilan cheklanib qolmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi – texnologiya fanida dars soatlarining kamligi muammosini tahlil qilish hamda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish orqali o'quvchilarning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga ijobiy ta’sir etish yo‘llarini ko‘rsatib berishdan iborat.

Texnologiya fanining ta’lim tizimidagi o‘rni. Texnologiya fani o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Sanoat, qurilish, transport, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarda mahsulotlar olish, ularga ishlov berish va ularni qayta ishlash usullari tartibga solingan tizim; shu usullarni ishlab chiqarish, joriy qilish va takomillashtirish bilan shug'ullanadigan fandir. Ushbu fan orqali o‘quvchilar:

turli xil hunar va kasblar bilan tanishadi

qo‘l mehnati orqali tajriba orttiradi

mustaqil ishlash ko‘nikmasini egallaydi

ijodiy fikrlashni rivojlantiradi

Texnologiya fanining asosiy maqsadi – o‘quvchilarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivolantirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ishlashni o'rgatishhamda kasb-hunar tanlashga yo'naltirish va hayotda zarur bo‘ladigan amaliy ko‘nikmalarni berishdir. Biroq bu maqsadga erishish uchun yetarli vaqt va sharoit talab etiladi.

Dars soatlarining yetishmasligi muammosi. Hozirgi o'quv rejalarga ko‘ra texnologiya faniga haftasiga o‘rtacha 1–2 soat ajratilgan. Bu esa fan doirasidagi ko‘plab mavzularni to‘liq o‘zlashtirish uchun yetarli emas. Masalan, bir o'quv yilida o‘quvchilar quyidagi yo‘nalishlar bilan tanishadi:

tikuvchilik

pazandachilik

dizayn

mexanika elementlari

hunarmandchilik

Bunday keng qamrovli mavzularni qisqa vaqt ichida o‘rganish natijasida:

-o‘quvchilar chuqur bilimga ega bo‘lmaydi

-amaliy mashg‘ulotlar yetarli darajada bajarilmaydi

-ko‘nikmalar shakllanmaydi

Bu esa texnologiya fanining asosiy maqsadiga zid keladi.

Amaliy ko‘nikmalarning ahamiyati. Amaliy ko‘nikma – bu o‘quvchining o‘rgangan bilimini hayotda qo‘llay olish qobiliyatidir. Aynan shu ko‘nikma orqali o‘quvchi kelajakda kasb egallashi va daromad topish ehtimoli yuqori. Agar o'quvchi texnologiya fanidagi mavzularni chuqur o'zlashtirsa:

-mustaqil fikrlash va erkin ijod qilish

-kichik biznes bilan shug‘ullanishi

-oilaviy daromadga hissa qo‘shishi

-dizayn, muhandislik yo'nalishlarida o'qishni davom ettirish va shu kabi bir qator imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib shuni takidlash joizki, texnologiya fanini o'qitishda har bir mavzuni chuqur va izchil o'zlashtirishga ustuvorlik berish ta'lim samaradorligini oshirishning asosiy omili hisoblanadi.

Amaliy misol va iqtisodiy tahlil: Mazkur maqoladagi keltirilgan rasmda 8-sinf "servis xizmati" yo'nalishi doirasidagi “Sun’iy gullardan guldasta tayyorlash” mavzusi bo'yicha amalga oshirilgan mashg'ulotning iqtisodiy samaradorligi miqdoriy ko'rsatgichlar grafik tarzda ifodalangan.



1-rasm

Tahlil va natijalar: Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, bitta kompozitsiya tayorlashdan olinadigan o‘rtacha sof foyda 119 000 so‘mni tashkil etadi. Shuni alohida takidlash lozimki, mavsumiy talab yuqori bo'lgan davrlarda- xususan, xalqaro bayramlarda (8-mart, 21-mart, to‘y mavsumi va boshqalar) oylik daromad o'rtacha 10–15 million so‘mgacha yetishi mumkin. Mazkur ko'rsatkichlar umumta'lim muassasalarida o'rganilgan amaliy ko'nikmalar asosida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi.

Muammoni hal etish yo‘llari. Texnologiya fanida mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

1. Dars soatlarini ko‘paytirish.

Texnologiya fanining unga ajratiladigan haftalik dars soatlarini me'yoriy hujjatlar asosida ko'paytirish hamda o'quv rejasini qayta ko'rib chiqish zarur.

2. Amaliy.....

O'quv jarayonida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashg'ulotlarga ustuvorlik berish,

3. Maktabdan tashqari ta'lim shakllarini joriy etish.

Mavzular bo'yicha ixtisoslashtirilgan to'garaklar tashkil etish orqali o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini darsdan tashqari ham mustahkamlash imkoniyatini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

4. Tadqiqotchilik faoliyatini rag'batlantirish.

O'quvchilarda mustaqil fikrlash va izlanish madaniyatini shakllantirish uchun loyiha asosidagi ta'lim muhitini yaratish tavsiya etiladi.

5. Ta'limni ishlab chiqarish va bozor muhiti bilan integratsiyalash.

O'quvchilarga o'zlari yaratgan mahsulotlarni bozor sharoitida taqdim etish va sotish imkoniyatini berish orqali ta'lim jarayonini iqtisodiy amaliyot bilan bog'lash, shu tarzda o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

Natijalar va muhokama. Yuqorida taklif etilgan chora-tadbirlarning to'liq va izchil amalga oshirilishi quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy natijalarga erishish imkonini beradi:

1. O'quvchilar texnologiya fani doirasida egallagan ko'nikma va malakalar asosida mustaqil mehnat faoliyatini amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'ladi.

2. Yosh avlod bandligini ta'minlash. Kasbiy yo'naltirilganlik darajasining oshishi natijasida yoshlar orasidagi ishsizlik ko'rsatkichi sezilarli darajada pasayishi prognoz qilinmoqda.

3. Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish. Maktab ta'limi jarayonida shakllantirilgan amaliy ko'nikmalar kichik va o'rta biznesning o'sishiga bevosita zamin yaratadi.

4. Moliyaviy savodxonlikni oshirish. O'quvchilar mustaqil daromad topish va uni boshqarish mexanizmlarini erta yoshdan o'zlashtirib, iqtisodiy jihatdan mustaqil shaxs sifatida shakllanadi.

Xulosa. Amalga oshirilgan tahlil va muhokamalar asosida shuni ta'kidlash joizki, texnologiya fani umumta'lim maktablari o'quvchilarining intellektual, kasbiy va ijtimoiy jihatdan shakllanishida yuqori ahamiyat kasb etuvchi o'quv fani hisoblanadi.

Biroq mavjud o'quv rejalari doirasida ushbu fanga ajratilgan dars soatlarining yetarli emasligi ta'lim jarayonining samaradorligini cheklaydi va o'quvchilarda zaruriy amaliy kompetensiyalarning to'liq shakllanishiga to'sqinlik qiladi.

Shu munosabat bilan quyidagi yo'nalishlar dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida belgilanadi:

-texnologiya faniga ajratiladigan haftalik o'quv darslarini me'yoriy asosda oshirish;

-nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashg'ulotlar ulushini kengaytirish;

-o'quvchilarni kasbiy faoliyatga maqsadli yo'naltirish tizimini takomillashtirish.

ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, mustahkam amaliy bilim va kasb kompetensiyalariga ega bo'lgan o'quvchi kelajakda mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis sifatida o'z o'rnini egallaydi hamda iqtisodiy jihatdan mustaqil va barqaror hayot kechirishga qodir bo'ladi. Bu esa o'z navbatida jamiyatning barqaror taraqqiyotiga bevosita hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Texnologiya fanidan o'quv dasturi 5-9 sinflar "
2. O'.O.Tohirov, I. karimov . M. M. Maxsimova 8-sinf "Texnologiya darsligi" Toshkent - 2019
3. Yo'loshev.J.G "Talim samaradorligini oshirish yo'llari" Toshkent-2012
4. Ishmuhammedov R. "Inovatsion pedagogik texnologiyalar" Toshkent-2012
5. Respublika ta'lim markazi rasmiy sayti www.edu.uz
6. Technology Education and Practical Skills Development -2019